

## O'tganlarni yod etib... Akademik To'ra Mirzayev tavalludining 85 yilligi nishonlandi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida akademik To'ra Mirzayev tavalludining 85 yilligi munosabati bilan "O'zbek folklorshunosligining dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi.



Anjumanda Institut xodimlari, respublikamiz va xorijiy davlatlardan yetakchi folklorshunos olimlar, yosh tadqiqotchilar, doktorantlar ishtirok etdi.

Anjumanga folklorshunoslikdagi yangi qarashlar, To'ra Mirzayevning ilmiy maktabini folklorshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy tadqiq etish, olimning folklorshunoslikka qo'shgan ulkan hissasi va yutuqlari haqidagi bir-biridan qiziqarli ma'ruzalar taqdim etildi.

Anjuman yakunida To'ra Mirzayev tavalludining 85 yilligi munosabati bilan O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamkorligida nashr etilgan "Ustozlar, safdoshlar, izdoshlar" va "E'tiqod va soflik ovozi" nomli to'plamlar taqdimoti ham o'tkazildi.



“Ustozlar, safdoshlar, izdoshlar” to‘plamdagi maqolalarda folklorshunos olim To‘ra Mirzayev tomonidan bir qator marhum folklorshunoslarning hayoti va ilmiy faoliyati yoritib berilgan. Shuningdek, safdoshlar hamda izdoshlarga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan. Unga folklorshunoslik bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim tilshunoslar, adabiyotshunoslar to‘g‘risidagi maqolalar ham kiritilgan. Ularning har biri portret-maqola xarakteriga ega bo‘lib, yaxlit olganda, o‘zbek folklorshunosligining fanning yangi sohasi sifatida shakllanishi va uning XXI asrdagi taraqqiyoti to‘g‘risida muayyan bir tasavvur bera oladi.

“E‘tiqod va soflik ovozi” nomli to‘plamda akademik To‘ra Mirzayev xotirasiga bag‘ishlangan maqolalar, ilmiy maqolalar, she‘rlar hamda olimning “Bibliografik ko‘rsatkichi” joy olgan. To‘plamga respublikamizdagi ijod ahlidan tashqari, To‘ra Mirzayevni yaqindan bilgan Germaniya, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston olimlarining ham maqolalari kiritilgan.